International Journal of Education, Social Science & Humanities.
Finland Academic Research Science Publishers
ISSN: 2945-4492 (online) | (SJIF) = 8.09 Impact factor
Volume-13| Issue-12| 2025 Published: |22-12-2025|

# JARQO'RG'ON MINORASI SURXON VOHASINING TARIXIY ME'MORIY OBYEKTLARIDAN BIRIDIR.

https://doi.org/10.5281/zenodo.17926470

**Q.B.Tilovov**
*Termiz davlat pedagogika instituti tarix fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya**

Mazkur maqolada Jarqo‘rg‘on minorasining tarixiymadaniy obyekt sifatidagi turistik imkoniyatlari ochib berilgan.

**Kalit so‘zlar**

Turizm, turist, tarixiy-ma’daniy obyekt, Jarqo‘rg‘on minorasi, turistik karidor.

Jarqo‘rg‘on minorasi — Surxondaryo viloyati Jarqo‘rg‘on tumani Minor qishlog‘ida joylashgan me’moriy yodgorlik (1108-09). Xuroson me’morlik maktabi an’analari asosida barpo etilgan. Yonida bir vaqtlar pishiq g‘ishtdan qurilgan Jome masjid bo‘lgan (saqlanmagan). Jarqo‘rg‘on minorasi 8 qirrali poydevor ustiga g‘ishtdan mavj shaklida terilgan 16 plitavor qobirg‘adan iborat. 20 m balandlikda g‘ishtin panjarali ravoqlar ishlanib, uning ustida kufiy yozuvli belbog‘ hoshiya bor. Belbog‘ ustida yana qirralar davom ettirilgan, lekin minora tepasi saqlanmagan. N. N. Karazin rasmida masjid va minora harobasi aks ettirilgan (1879-yil). Minoraning hozirgi bal. 21,6 m, asosi (diametri - 5,4 m)ning kitobasida me’mor nomi Ali ibn Muhammad Saraxsiy va qurilgan sanasi yozilgan (V. A. Shishkin tomonidan o‘qilgan). Jarqo‘rg‘on minorasi ta’mirlangan, davlat tomonidan muhofaza qilinadi.

Bu minorada aylanma zina bo‘lib, muazzin turishiga mo‘ljallangan maydoncha — qafasga olib chiqqan. Bu maydoncha dastavval tahminan 16-18 metr balandlikda bo‘lgan. Tanasining rish-tin yuzasi burtma epigrafik bezakdan iborat bo‘lgan to‘rtta belbor bilan bezatilgan. Belboglar g‘isht juft-juft terilgan minoranishg yuzasida ajra-lib kurinib turadi. Bu monumental hattotlik-ning ilk variantlari bo‘lib, taroshlangan g‘ishtlardan terilgan kufiy lavhalar sodda va birmuncha handasaviy hususiyatga ega edi.Minora belborlaridan birida u bunyod etilgan sana - hijriy 423-yilni ukdshga muvaffak, bulindi (bu milodiy 1032-yilga to‘g‘ri keladi).O‘rta Osiyodagi qirrali yagona minora - Jarqo‘rg‘on minorasi. U O‘rta asrlardagi Charmangan kishlori hududida memor Ali ibn Muhammad Saraxsiy tomonidan 1109-yilda qurilgan. Bir mahallar ikki oshiyonali bo‘lgan bu

minoraning kuyi oshienasi hozir ham yahshi saqlanib qolgan. Uning tanasi bir-biriga tutashgan yarimdoira tarzidagi 16 kirra bilan bezatilgan. Mahorat bilan archasi-mon terilgan kirralar

Quyida bir-biridan bir muncha ko‘chib, yuqoriga ko‘tarilgan sayin bir-biriga yaqinlashib boradi. 20 metr balandlikda ular gorizontal epigrafik belbog‘ bilan tutashgan. Bu yerda kur`oniy lavh tugamagan, bipobarin, minora tanasining saqlanib qolmagan qismida epigrafik naqshli yana bir belbor bo‘lgan. Minoraning 21,6 metrli qismi saqlanib qolgan. Quyi diametri 5,4 metr, yukorisi — 4,1 metr. Minora g‘ishti royat puhtalik bilan naqshinkor terilgani va umu-man uning nafis badiiy qiyofasi kishini hayratga soladi. Jarqo‘rg‘on minorasi memoriy-badiiy yechimiga kura Shimoliy Hindiston va Huroson minoralariga yaqin turadi.Sharqda bu tipdagi bino dastavval Narshahiyning „Buxoro tarixi“ kitobida tilga olingan. Unda Buxorodagi 937-yilda yonib ketgan Farjak madrasasi haqida gap boradi. Jarqoʻrgʻondagi minora quruvchi va buyurmachi nomlari bitilgan, mahobatli meʼmorchilik aniq sanalgan yodgarliklardan biri boʻlib qolmay, O`zbekiston hududida saqlanib qolgan musulmon minoralaridan eng qadimgisi hamdir3. XX asr boshida tadqiqotchilar bizgacha yetib kelgan silindirsimon Jarqoʻrgʻon minorasini Markaziy Osiyoda qurilgan noyob inshoatlar eng qadimiysi (423 hijriy-1032 milodiy ), deb qayd qilgan edilar. Shuning uchun Jarqoʻrgʻon (Oʻrta asrlarda bu yerda Charmangan qishlogʻi joylashgan edi) minorasi Surxondaryo vohasida saqlanib qolgan yagona obidalardandir. Minoraning yuqori qismi vayron boʻlganiga qaramay, u hamon meʼmoriy yaxlidlikni yoʻqamagandek tuyuladi, oʻzining salobatli koʻrinishi bilan barchani maftun etadi.

XULOSA Jarqo‘rg‘on minorasiga yil davomida mahalliy va xorijiy turistlar tashrif buyurmoqda. Minor qishlog‘ida joylashgan mazkur obida tuman markazidan 2 km janubi-g‘arbda joylashgan bo‘lib, bu yerga tashrif buyuruvchi sayyohlar uchun hech qanday muammo tug‘dirmaydi. Shu sababli mazkur obida atrofida mazkur maskanga kelib ketuvchi sayyohlar uchun qulay shart-sharoitlar (avtomabil yoʻllarining taʼmirtalab qismini taʼmirlash, milliy kasanachilik bilan shug‘illanuvchilar uchun maxsus joylar yaratish, savdo va umumiy ovqatlanish hamda aholiga boshqa maishiy xizmatlar koʻrsatishni tashkil qilish) yaratilsa sayyohlar oqimi bundanda koʻp boʻlishi shubhasizdir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. T. 2022.01.15. PF-52-son.
2.Oʻzbekiston milliy ensklopediyasi. Toshkent-2000.

3.Tursunov S.N., Pardayev T.P., Ahmedova G.O`., Maxmadiyorova H., Narzullayeva N., Tursunova N.M. O`zbekiston janubiy hududlarida madaniy va amaliy sa’nat yodgorliklari”. Toshkent-2017.

4. Tursunov S.N., Tuxtayev A. “Jarqo`rgon tarixidan lavhalar” 2015-yil

5. Комилова, Нилуфар, and Ойхумор Рўзиқулова. "REGIONAL ASPECTS OF MATERNAL AND CHILD HEALTH IN UZBEKISTAN." Pedagogika: 74.

6. Kalonov, B. H., & Latipov, N. F. (2021). Characteristics Of Geographical Location Of The Population Of Navoi Region. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 25(2), 477-479.

7. Kalonov, B. H., Latipov, N. F., & Shirinova, M. S. (2021). ENVIRONMENTAL PROBLEMS IN THE NAVOI REGION COTTON FIELD. Мировая наука, (4), 15-18.